

TOBORA YOS HARIB BORAYOTGAN KO'Z KASALLIKLARI

Sh. Z. Qodirova

Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Maqolada hozirda jamiyatda ko'p uchrayotgan ko'z kasalliklari turlari va ularning morfologiyasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ko'rish organi, ko'z kosasi, miopiya, gipermetropiya, astigmatizm, anizometropiya

Ko'rish organi — ko'z yordamida odam tevarak-atrofdagi buyumlarning rangi, tuzilishi, hajmi, bir-biridan farqini ajratadi; o'simlik va hayvonot olamini o'rganadi; rassomlik, me'morlik, haykaltaroshlik san'atlarining mahsulotlaridan bahramand bo'ladi, tabiat go'zalliklaridan zavqlanadi. Ko'rish odamning mehnat faoliyatida muhim o'rin tutadi. Ko'rish orqali inson o'qishni, yozishni va mehnatning boshqa turlarini o'rganadi, bilim oladi, hunar egallaydi. Binobarin, ko'rish orqali odamning ichki dunyosi, uning tevarak-atrof, tabiat, san'at haqidagi tushunchasi, fikrlash qobiliyati, aql-idroki, ongi rivojlanadi. Ko'z bosh suyagining chuqurchasida — ko'z kosasida joylashgan. Ko'z ko'z soqqasi, ko'rish nervi va yordamchi qismlar: ko'z soqqasini harakatlantiruvchi muskullar va ularning nervlari, qovoq va ki'driklar, yosh bezlari, qon tomirlari kabilardan tuzilgan. Ko'z soqqasi tashqi va ichki qismlardan iborat. Tashqi qismi uch qavat: tashqi — fibroz, o'rta — qon tomir va ichki — to'rsimon pardalardan tashkil topgan. Ichki qismiga ko'z ichi suyuqligi, ko'z gavhari va shishasimon tana kiradi. Fibroz pardaning oldingi qismida shox parda bo'ladi. Ko'z soqqasining ichki — to'rsimon pardasi, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega, chunki uning orqa qismida yorug'likni, ranglarni qabul qiluvchi retseptorlar joylashgan. Ular maxsus nerv hujayralari bo'lib, tayoqcha va kolbacha shaklidir.

Ko'z kasalliklari — inson ko'rish analizatorining organik va funktsional shikastlanishlari, shuningdek ko'zning yordamchi apparati (qovoqlar, kon'yuktiva va boshqalar) shikastlanishi bo'lib, kishining ko'rish qobiliyatini cheklaydi. Ko'z kasalliklari turfa xil bo'ladi, shu sababli ular odatda bir nechta bo'limlarga bo'linadi. Shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltirib o'tamiz:

Refraktsiya buzilishi: **a) Miopiya** — tasvir ko'z to'r pardasida emas, balki uning oldida shakllanishi, bemor yaqinni yaxshi ko'rib, uzoqni yaxshi ko'ra olmaydi.

b) Gipermetropiya — tasvir ko'z to'r pardasida emas, balki uning ortida shakllanishi bilan tavsiflanadigan kasallik. Bunday bemor ham uzoqni, ham yaqinni yaxshi ko'ra olmaydi.

c) **Astigmatizm** — ko'z olmasi, gavhari yoki shox pardasi shakli o'zgarishi tufayli ko'rishning buzilishi.

d) **Anizometriya** — chap va o'ng ko'z refraksiyalarining bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kochkarova, R. R., & Turgunov, E. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING CHEMISTRY LESSONS AT SCHOOL WITH THE HELP OF DIFFERENT GAMES. American Journal of Applied Science and Technology, 3(10), 15-19.
2. Кучкорова, Р. Р. (2022, November). КОМПЛЕКСНЫЕ СОЕДИНЕНИЯ ПРОИЗВОДНЫХ ФТОРИРОВАННЫХ β-ДИКЕТОНОВ С ПЕРЕХОДНЫМИ МЕТАЛЛАМИ. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 10, pp. 250-255).
3. Bafoevich, U. B., Rasulovna, K. R. N., & Ziyodulloevna, K. S. (2021). REACTION OF 1, 1, 1-TRIFLUOROMETHYL-4-PHENYL BUTANEDIONE-2, 4 WITH BENZOIC ACID HYDRAZIDE. INFORMATION TECHNOLOGY IN INDUSTRY, 9(3), 939-944.
4. Rasulovna, K. R. (2023). Complex Nickel (Ii) Compounds Based on Acylhydrazones of Aroyltrifluoroacetylmethanes. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(10), 3-5.
5. <https://mymedic.uz/kasalliklar/oftalmologiya/koz-kasalliklari>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ko%CA%BBz>